

D.M.Maxmudova

**“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi”
kafedra pedagogika fanlari fanlari falsafa doktori**

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI DASTLABKI SAVODXONLIKKA O'RGATISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda qaratilgan “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 802-son qarorida o'z tasdig'ini topgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida katta guruhlardagi bolalarga dastlabki savodxonlikni o'rgatish metodikasi bo'yicha material keltirilgan.

Аннотация: В данной статье оказана поддержка развитию детей младшего и дошкольного возраста для организаций дошкольного образования, что подтверждено в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 802 от 22 декабря 2020 года «Об утверждении Государственного стандарт дошкольного образования и воспитания» Материал «Методика обучения начальной грамоте детей в больших группах» основан на государственных требованиях и протоколе Координационного совета Министерства дошкольного образования № 1 от 4 февраля 2022 года и рекомендован для представления публикации.

Bugungi kunda bolalarni dastlabki savodxonlikka o'rgatish maktabgacha ta'lim tashkilotining ustuvor yo'nalishlaridandir. Shu munosabat bilan ularning savodxonlikga tayyorgarligi va qo'l, barmoq harakatlarini muvofiqlashtirishni rivojlantirish bo'yicha tizimli ish olib borilishi zarur.

Fikrimizcha MTTda bolalarni katta guruhlardan savodxonlikka o'rgatish – bu barcha tovushlarini nutqida to'g'ri va aniq talaffuz qilib, tovushlarga tegishli so'zlarni topish, tovushlar birikmasi orqali alohida so'zlarning, iboralarning, badiiy adabiyotlar matnining ma'nosini angalash va nutqida to'g'ri qo'llash qobiliyati, ular haqida fikr yuritish, o'z fikrini ifodalash, atrofdagi olam haqidagi bilimlarni kengaytirishdir.

Mazkur davlat talablarining asosiy sohalardan biri “Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari” bo'lib, u quyidagi kichik sohalardan iborat: Til va nutq; o'qish malakalari; qo'l barmoqlari mayda motorikasi. Ushbu kichik sohalarning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun katta guruhlarda savodxonlikka o'rgatish ta'limiy faoliyati o'quv yili davomida jami 36 ta mashg'ulot rejalashtirilgan, ularning davomiyligi 25-30 daqiqani tashkil etadi.

“Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasining kichik sohalarda boladan kutilayotgan natijalar quyidagilardir:

“O'qish malakalari” – so'zdagi birinchi tovushni bilish; kitobni mustaqil tomosha qilish; tovushlarni farqlash; so'zlarni bo'g'inga bo'lish; so'zlarga qofiya kelishtirish; nutqning dialogik shaklini qo'llash, savollarga javob qaytarish va bolaning o'zi ham savollar berishi; she'rlarni yod olish va ifodali o'qish; badiiy adabiyot, ertak, hikoya mualliflari va ularning nomini bilish; ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llash; tovushlarga tegishli so'zlarni topish.

“Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” – chiziq, ilgak va gajakcha yozishi; qog‘ozni turli usulda taxlashi (origami); barmoqlari yordamida mashqlar bajarishi; rasmlarni tekis shtrixlashi; turli sathlarda chizishi (nam qumda, asfaltda, doskada); mozaika yig‘ishi.

Savodxonlikka o‘rgatish jarayonini tashkil etish metodikasi analiz-sintez metodi orqali 2 bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqichda – tarbiyachi bolalarga og‘zaki nutq haqida tushuncha beriladi, ya‘ni so‘z, tovushlar, bo‘g‘in, gap, nutq gaplardan, gaplar so‘zlardan tuzilishi, so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linishi, shuningdek, bu bosqichda tabiyalanuvchilarning bog‘lanishli nutqi ustida ishlanadi.

Ikkinchi bosqichda – birinchi bosqichdagi vazifalar davom ettirilgan holda savodxonlikka o‘rgatishning quyidagi metodik yondashuv bo‘yicha ish olib boriladi:


- So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi,
- Bo‘g‘inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma‘lumot beriladi.
- Tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o‘rgatiladi.
- So‘z ichidagi yangi tovushni aniqlash va uning bo‘g‘indagi o‘rnini belgilash.

Tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirishda kompleks yondashuvdan foydalanib, so‘z boyligini boyitish va faollashtirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik tuzilishini shakllantirish, til hodisalari haqida tushunchalarni rivojlantirish, unli va undosh tovushlarni ajrata olish, bo‘gin va so‘zlarni hosil qilish tufayli dastlabki o‘qish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tinglovchi ekanligini inobatga olib, ularni kitobxonlikka tayyorlashda, badiiy asarga qiziqishi kattalarga, xususan tarbiyachiga bog‘liq. Avvalam bor matnning mazmuni pedagog (bo‘lajak pedagog) tomonidan yetqaziladi, shuning uchun u ifodali o‘qish qobiliyatlarini egallashi alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan pedagogika universitetlari va institutlari maktabgacha ta‘lim fakultetlarida, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tomonidan MTTning katta guruh bolalarida dastlabki savodxonligini shakllantirish bo‘yicha talabalar va pedagoglar bilan tizimli ish olib borish muhim ahamiyatga ega. Masalan, davra suhbatlari, treninglar tashkil etilib, ishtiroqchilar o‘zining tajribalari bilan o‘rtoqlashib, ifodali o‘qishni mashq qiladilar va bolalarning badiiy nutqini rivojlantirish bo‘yicha foydali fikrlar bilan almashadilar.

Bolalarni dastlabki savodxonlikka tayyorlashda turli hil ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ham samarali metodlardandir. Masalan,





O'quv yili oxirida tarbiyalanuvchilar quyidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'ladimlari lozim:

1. O'qish ko'nikmasi bo'yicha:

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;

So'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega bo'lishi;

So'zning bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

Nutqni eshitib, tushunishi.

2. Yozuv ko'nikmasi:

Qog'ozda to'g'ri chiziqlar yozishi;

Rasmlarni to'g'ri joylashtirishi;

Qo'lni uzmasdan nuqta chiziqlarini birlashtirib rasm chizishi;

Siniq, to'liqsimon, ilgak chiziqlarni chizishi;

Rasmlarni tekis shtrixlashi;

Qo'lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chiza olaishi.

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi:

So'z yoki bo'g'indagi tovushni ajrata olishi;

Barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi;

Nutqning baland yoki past ovozda aytilishiga, diksiyasiga e'tibor qaratishi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Makhmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.
6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
7. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
8. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. Экономика и социум, (1-1 (80)), 157-159.
9. Makhmudova, D. M. (2023, January). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШДА INNAVATSIYON КИТОБЛАРНИ АХАМИЯТИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).
10. Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).
11. Makhmudova, D. M.(2022). AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING
12. Makhmudova, D. M. (2022, February). ON THE PROBLEMS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. In Conference Zone (pp. 225-226).
13. Mirkarimovna, M. D. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI XALQ OGZAKI IJODI VOSITASIDA КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ. PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 1(1), 35-37.
14. Mirkarimovna, M. D., & Zeboxon, A. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASHTIRISHNING TUZILISHI VA FUNKSIYALARI. PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 1(1), 7-9.

15. Maxmudova, D. M., & Xumora, R. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ERTAKLI KITOBLAR YARATISH USULLARI. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).
16. Mirkarimovna, M. D. (2024). MTTDA TARBIYALANUVCHILARNING MADANIY-TARIXIY QADRIYATLAR VOSITASIDA MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASI. PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 1(1), 10-12.
17. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ЭРТАКЛАР ВОСИТАСИДА КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(24), 95-97.
18. Mirkarimovna, M. D., & Nilufar, O. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIMIY FAOLIYATNING TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI. PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 1(1), 31-34.
19. Mirkarimovna, M. D. (2024). МАКТАБГАЧА KATTA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ OG 'ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY G 'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH-IJTIMOY PEDAGOGIK ZARURIYAT. PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 1(1), 5-6.
20. Махмудова, Д. М. (2024). КАЧЕСТВЕННАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(3), 167-176.
21. Makhmudova, D. M. (2024). QUALITY PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION. World of Scientific news in Science, 2(2), 125-130.
22. Maxmudova, D. M., & qizi Sulaymonova, O. D. (2023, January). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTI VA OILANING HAMKORLIKDAGI ISH SHAKLLARI MAZMUNI HAMDA TAMOYILLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 621-624).
23. Махмудова, Д. М. (2023). ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).
24. Mirkarimovna, M. D. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOY